

O'zbekiston-2017: bir yil ichida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

O'zbekistonda yangi rahbar boshqaruvi ostida bir yil o'tdi. Ushbu davr mobaynida mamlakatda massiv iqtisodiy islohotlar va dinamik o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston o'ziga xalqaro siyosiy va biznes doiralari, shu jumladan Forbes, The Wall Street Journal, Bloomberg kabi yetakchi chet el ommaviy axborot vositalari e'tiborini qarata boshladi. Endilikda O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar jarayoni va natijalari xalqaro media platformalar diqqat markazida bo'lmoqda va Toshkent Markaziy Osiyoda asosiy yangilik va xabarlar beruvchi shaharga aylandi.

Shu bilan birga O'zbek jamiyatining mamlakatda bo'layotgan o'zgarishlarga bo'lgan munosabati ancha o'zgardi, xalqning islohotlarga qo'shishi mumkin bo'lgan hissasi har doimgidan ko'ra ahamiyatli. Bundan tashqari butun mamlakatni qamrab olayotgan siyosat va jamiyatda ro'y berayotgan jarayonlarni televideniya har kungi ijtimoiy muhokamalari g'oyalar generatori bo'lib davlatning rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Sh.Mirziyoyevning keng ko'lamli islohotlari iqtisodiy sohada ham boshlandi. Mamlakat Senati raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyevga ko'ra, yuqori iqtisodiy o'sish va O'zbek iqtisodining o'sib borayotgan raqobatbardoshligini ta'minlash milliy rahbariyat uchun birinchi darajali masalaga aylandi. Prezidentlikning birinchi kunlaridan boshlab Shavkat Mirziyoev davlatning investitsion iqlimini rivojlantirish va milliy iqtisodning chet el investorlari uchun yanada ko'rkamligini ta'minlash yo'lida siyosat olib bordi. O'zbek hukumatining moliya, savdo, soliq va investitsiya sohasida olib borayotgan siyosat orqali boshlab yuborgan iqtisodiy liberalizatsiyasi Jaxon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, YeTTB, OTB kabi xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ma'qullandi. Sentabr oyidagi milliy valyutaning to'liq konvertatsiyasi shu sohada qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Iqtisodiy liberalizatsiya va jamiyat modernizatsiyasi O'zbekistonning yangi realligiga aylandi. Ushbu islohotlarni xalqaro ekspertlar "Toshkent butun e'tiborini o'ziga qaratgan izolyatsion holatga tushib qolgan edi, endilikda esa u qo'shnilar va dunyo uchun ochilmoqda", deya baholashmoqda.

Bugungi kunda O'zbek hukumati asosiy iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni tatbiq etish yo'lida chet el konsalting kompaniyalari, investitsion banklar va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan ishlamoqda. Mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi barcha islohotlarni tartibga soladigan va yo'l xaritasi sifatida xizmat qiladigan hujjat hisoblanadi.

Strategiya mamlakat rivoji uchun muhim hisoblangan beshta yo'nalishni aniqlab beradi: davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat olib borish. Strategiyada alohida e'tibor davlat suvereniteti va erkinligini kuchaytirishga, uning xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida o'sib borayotgan o'rni, rivojlangan demokratik mamlakatlar qatoriga kirib borishi, atrofida xavfzlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatni xalqaro nufuzini mustahkamlashga qaratilgan.

Shu munosabat bilan, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Helena Fraser strategiya va uning asosida qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan yangi tashqi siyosat yondashuvi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning kelajakdagi farovonligi va barqaror rivojlanishining kafolati ekanini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, xalqaro ekspertlarning fikricha, Harakatlar strategiyasini qabul qilish va amalga oshirish suveren O'zbekistonni rivojlantirishda yangi ustun ekanligini anglatadi.

Strategiyaning mazmun va mohiyatiga tayanib, uning asosiy xususiyatlarini hisobga olishimiz kerak. Birinchidan, Strategiyani qabul qilish bugungi O'zbek jamiyatida jiddiy muammolar mavjudligini tan olish ekanini anglatadi. Bunday holatda, ushbu muammolarni yechish ham ularning to'g'ridan to'g'ri tan

olinishidan boshlanadi. O'zbekistonning yangi rahbariyati Harakatlar Strategiyasi doirasida keng ko'lamli va tarixiy islohotlarni yo'lga qo'yish orqali muhim qadamni qo'ydi.

Ikkinchidan, birinchi marta bunday keng ko'lamli dastur Hukumat va xalq o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqot orqali qabul qilindi. Avval uni qabul qilish strategiyasining loyihasi ommaviy axborot vositalarida va Internetda e'lon qilindi va har bir fuqaro o'z fikrini bildirish, qarashlari bilan bo'lishish va unga o'zgartishlar kiritishga imkon yaratdi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda o'zbek xalqi, jumladan, ekspertlar hamjamiyati vakillari, xususiy sektor, tadbirkorlar, nodavlat tashkilotlar, hatto xorijiy ekspertlar ham strategiyaning hammualliflari bo'lishdi. Shu orqali xalq qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish uchun haqiqiy imkoniyatni qo'lga kiritdi va bu umummilliy muhokama mavzusiga aylandi.

Uchinchidan, Strategiya nafaqat hujjat, balki haqiqiy harakatlar va aniq choralar uchun yo'l xaritasidir. Bu balandparvoz gaplar yoki PR kampaniyasining populist deklaratsiyasi emas. Shu bois bugun biz O'zbekistonda ijobiy va dinamik o'zgarishlarni kuzatmoqdamiz. O'zbekiston viloyatlariga ko'plab tashriflar aholiga Prezident bilan muloqotga kirishish imkonini bermogda. Hukumat va mintaqaviy darajada tez-tez o'zgarishlar, shuningdek, islohotlarga moyil bo'lgan yosh vazirlarni tayinlash O'zbekiston rahbariyatining modernizatsiya qilishga qaratilgan jiddiy e'tiborini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, O'zbekiston Markaziy Osiyo bo'yicha demografik ko'rsatkichlari eng yirik bo'lgan davlat hisoblanadi. Mintaqaning deyarli yarim aholisi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Mustaqillikdan buyon O'zbekiston aholisi 50 foizga (20 milliondan 32,5 milliongacha) oshdi. Bir so'z bilan aytganda, mintaqadagi har ikkinchi odam O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo aholisining yarmi rivojlanishning yangi bosqichiga o'tdi.

Shu munosabat bilan, Strategiyani amalga oshirish nafaqat O'zbekistonga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston mintaqaning barcha davlatlari, jumladan, Afg'oniston bilan chegaradosh. O'zbekistonning faol mintaqaviy siyosati va butun dunyoga ochiqligi Markaziy Osiyoda yangi siyosiy voqea bo'ldi.

BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil sentabridagi murojaatida Sh.Mirziyoev O'zbekiston zamonaviy tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini ta'riflab, Markaziy Osiyo mintaqasi asosiy ustuvor yo'nalish ekanligini ta'kidladi va buni "ongli ravishdagi tanlov" deb atadi. U "tinch va iqtisodiy jihatdan gullab-yashnayotgan Markaziy Osiyo bizning eng muhim maqsadimiz va asosiy vazifamiz", deb ta'kidladi. Bundan tashqari, Prezident Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining sammitini tashkillashtirish tashabbusi bilan davlatlararo aloqalarni kuchaytirishga alohida urg'u berdi. U ta'kidlaganidek, "Prezidentlar muntazam maslahatlashuv uchrashuvlarini o'tkazish" qo'shnilar bilan yaqinlashish tendensiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tasdiqlab, Prezidentlikning dastlabki kunlaridan Sh.Mirziyoyev qo'shnilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga, Markaziy Osiyo davlatlarining barcha rahbarlari bilan ishonchli aloqalarni o'rnatishga qaratilgan qat'iy va aniq qadamlar qo'ydi.

2017 yilning dekabrda o'tkazilgan Parlament majlisidagi tarixiy nutqida Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosat sohasida o'tgan davr mobaynida O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan, birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishganini ta'kidladi.

Bundan tashqari, Toshkent "O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi - Markaziy Osiyo" tamoyilini amalga oshirishga kirishdi. Natijada mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosida aloqalar mustahkamlandi.

Turkmaniston va Qirg'iziston bilan Strategik hamkorlikka asoslangan aloqalar tuzildi. Qozog'iston bilan strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi, 2 milliard dollarga teng bo'lgan iqtisodiy bitimlar imzolandi. Tojikiston bilan hamkorlik mustahkamlanmogda. Toshkent va Dushanbe o'rtasida havo aloqalari qayta yo'lga qo'yildi. Shu ma'noda Qirg'iziston bilan Davlat Chegarasi to'g'risidagi Shartnomani imzolash Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash

yo'nalishidagi jiddiy qadam bo'ldi.

Juda qisqa vaqt ichida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 70 foizga, Tojikiston bilan 85 foizga, Qozog'iston bilan esa 30 foizga oshdi. Qo'shni Afg'oniston bilan muhim va o'zaro manfaatli bitimlar imzolandi, yangi iqtisodiy va ijtimoiy loyihalar bo'yicha amaliy ishlar boshlangan.

Markaziy Osiyo bo'yicha tahlilchi Ketrin Pus, "The Diplomat" gazetasida yozilishicha, ikki tomonlama aloqalarni tiklash jumboqning faqat bir qismidir, ikkinchisi - Toshkentning ko'p tomonlama hamkorga aylana olishi. O'zbekistonning mintaqa bilan kirishishga qaratilmagan va tashqi kuchlarga nisbatan muvozanatli tashqi siyosati Markaziy Osiyoda geosiyosiy muvozanatni, geosiyosiy plyuralizmni saqlab qolishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Tadbirning ochilish marosimida O'zbekiston Prezidenti O'zbekiston hech qanday harbiy blokning tarkibiga kirmasligini, chet eldagi harbiy bazalarning mamlakat ichida joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligini, chet eldagi harbiy operatsiyalarda qatnashmasligini tasdiqladi.

2017 yilda Prezidentimizning 21 ta oliy darajadagi tashriflari bo'lib o'tdi. Prezident 60 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashdi. Natijada 400 dan ziyod bitimlar tuzildi va umumiy hajmi 60 milliard AQSh dollariga teng savdo-sotiq shartnomalari imzolandi. Qabul qilingan hujjatlarni o'z vaqtida tatbiq etish uchun xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda amalga oshirilayotgan 40 ta "yo'l xaritalari" ishlab chiqildi.

O'zbekiston Prezidenti so'nggi 12 oy mobaynida respublikaning strategik hamkorlari, jumladan, Rossiya, Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Turkiya va boshqa davlatlarga rasmiy tashrif buyurdi. Faqatgina bu yilda hukumatlararo komissiyalarning savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va texnologik hamkorligi doirasida 12 ta uchrashuvi bo'lib o'tdi, O'zbekistonning iqtisodiy delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga tashrifi 130 taga yetdi, respublikaga xorijiy ishbilarmon delegatsiyalar 267 marotaba tashrif buyurdi.

O'zbekiston BMT, IHT, ShHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar bilan yangi darajadagi hamkorlikni rivojlantira boshladi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik qayta tiklandi va Yevropa investitsiya banki bilan hamkorlik o'rnatildi. Jaxon Banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Osiyo Taraqqiyot Banki, Islom Taraqqiyot Banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik dinamik xususiyat kasb etmoqda. Mamlakatdagi bu kabi ijobiy o'zgarishlar xalqaro maydonda O'zbekistonning nufuzini oshirmoqda.

Xulosa o'rnida eslatib o'tish joizki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunday keskin o'zgarishlar Toshkent bilan uning mintaqaviy va xalqaro hamkorlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ishonchli poydevor yaratdi. O'zbekiston hukumati o'z innovatsion va samarali ichki va tashqi siyosatini tasdiqladi, bu nafaqat O'zbekiston uchun, balki barqaror va ravnaq topgan Markaziy Osiyo uchun manfaatdor xorijiy sheriklar uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati tasdiqlagan innovatsion va samarali ichki va tashqi siyosat nafaqat O'zbekiston uchun, balki rivojlanayotgan va barqaror Markaziy Osiyoga qiziqish bildirgan xorijiy hamkorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Botir Tursunov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari

Rustam Xuramov - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar institutining yetakchi ilmiy xodimi